



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganishning ahamiyati.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiov Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinova</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmira Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
		Turumbetova Aygul Yusupbaevna	
		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
		Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	
		Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
		Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	
		Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
		Ermatova Robiya Bekjonali qizi	
		The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
		Ismailova Shaira Ferdausovna	
		Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners	204
		Maqsudova Gulnoz Olimovna	
		Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
		Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	
		Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
		Sharipova Muhabbat Erkinovna	
		Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
		Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	
		Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv	222
		Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	
		O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili	227
		Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	
		Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	229
		Safarova Madina Azamat qizi	
		Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
		Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	
		Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века	239
		Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб	
		Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана	242
		Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	



DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYAT TAJRIBASINI SHAKLLANTIRISH



Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti 7-ped-25-guruh magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishning mazmuni, pedagogik shart-sharoitlari va samarali usullari yoritilgan. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, to'g'arak va tarbiyaviy tadbirlarda ularning mustaqil fikrlash, tasavvur qilish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: darsdan tashqari mashg'ulot, boshlang'ich sinf, ijodiy faoliyat, tajriba shakllantirish, kreativlik, mantiqiy fikrlash, to'g'arak, pedagogik texnologiya.

Abstract: This article discusses the content, pedagogical conditions and effective methods of forming the experience of creative activity of primary school students in extracurricular activities. Based on the psychological characteristics of younger school-age students, the issues of developing their independent thinking, imagination and problem-solving skills in clubs and educational activities are analyzed.

Key words: extracurricular activities, primary school, creative activity, experience formation, creativity, logical thinking, club, pedagogical technology.

Аннотация: В данной статье раскрываются содержание, педагогические условия и эффективные методы формирования опыта творческой деятельности учащихся начальных классов во внеурочных занятиях. На основе психологических особенностей детей младшего школьного возраста проанализированы вопросы развития их самостоятельного мышления, воображения и навыков решения проблемных ситуаций в кружковой работе и воспитательных мероприятиях.

Ключевые слова: внеурочная деятельность, начальная школа, творческая деятельность, формирование опыта, креативность, логическое мышление, кружок, педагогическая технология.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri – faqatgina tayyor bilimlarni o'zlashtiradigan emas, balki mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, hayotiy muammolarga nostandart yechimlar topa oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Bu jarayonni maktab ta'limining ilk bosqichidan, ya'ni boshlang'ich sinflardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishda nafaqat dars jarayoni, balki darsdan tashqari mashg'ulotlar ham beqiyos imkoniyatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so'zlarini keltirib o'tmoqchiman: "Hozirgi zamonda hamma jabhalarda ilm, bilim va salohiyat suv bilan havoday zarurligi, har qaysi davlat faqatgina shu asosda taraqqiyotga erishishi, sodda qilib aytganda, inson bilak kuchidan ko'ra ilm kuchi bilan ko'proq daromad va obro'-e'tibor topishi mumkinligini hammamiz yaxshi anglaymiz".

Albatta, chunki shu jamiyatda yashaydigan inson keng faoliyatga tayyorlanar ekan, uning rivojlanishi va tafakkurini yangilashda o'quv jarayoniga ilg'or texnologiyalarni kiritish, o'quvchilarning erkin, mustaqil fikrlash va ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari ishlar o'quvchilarning qiziqishi, xohish-istaklari va ehtiyojlariga suyanganda holda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. Darsdan tashqari ishlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini va tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Darsdan tashqari ishlarning o'ziga xosligi shundaki, to'g'arak dasturlarining rang-barangligi va ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Respublikamiz olimlaridan J.G'. Yo'ldoshev tadqiqotlarida zamonaviy o'zbek maktablarida pedagogik texnologiyalar va kreativ yondashuvlarni joriy etish masalalari tahlil qilingan. Ularning fikricha, ta'limni individuallashtirish va o'quvchining shaxsiy tashabbuslarini rag'batlantirish darsdan tashqari to'garak faoliyatlarining bosh maqsadi bo'lishi lozim.

Shuningdek, metodist olimlar darsdan tashqari mashg'ulotlarni faqatgina darsning davomi emas, balki o'quvchining erkin ijtimoiy va ijodiy moslashuv (adaptatsiya) maydoni sifatida baholaydilar. G'arb tadqiqotchilaridan J. Gilford va E.P. Torrens kreativlik (ijodkorlik) tushunchasini diversifikatsiyalangan (keng qamrovli va nostandart) fikrlash bilan bog'laydilar.

Torrens yondashuviga ko'ra, boshlang'ich sinf davrida bolalarda kreativlikning bir necha inqirozli pallalari kuzatiladi. Darsdan tashqari erkin va muammoli xarakterdagi mashg'ulotlar ushbu inqirozlarni yengib o'tishga va bolaning ijodiy potensialini saqlab qolishga yordam beradi.

Pedagogik amaliyot nuqtayi nazaridan, Y.A. Komenskiy va K.D. Ushinskiy kabi klassik pedagoglar ta'limda ko'rgazmalilik va qiziqish uyg'otish prinsiplari orqali bolaning ichki ijodiy kuchlarini faollashtirish zarurligini uqtirganlar.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o'tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan, raqobatbardosh va keng fikrlovchi kadrlarni voyaga yetkazishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, san'at va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog'liq.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish haqida gapirishdan oldin "ijod", "ijodkorlik" kabi atamalarga to'xtalib o'tamiz. Bugungi kunda ilmiy-uslubiy adabiyotlarda va darsliklarda "ijod", "ijodkorlik" kabi atamalarni tez-tez uchramiz. Bu atamalarning adabiyot sahifalarida paydo bo'lganligi bejiz emas.


"Ijod" so'zining lug'aviy ma'nosi "yaratish", "yangilikni kashf qilish" kabi tushunchalarni anglatadi. "Ijodkorlik" esa faoliyatning turli holatlarida namoyon bo'ladi. Qiziqish, ilhom, intilish va boshqa omillar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishi va namoyon bo'lish jarayonini o'z ichiga oladi. Ijodkorlik sifat jihatidan yangi moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayonidir.

Sinfdan tashqari ishlar - umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv-tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi.

Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan hamda ularga tarbiya va bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish ma'lum bosqichlarda va tizimli yondashuv asosida amalga oshiriladi. Ijodkorlik to'satdan paydo bo'lmaydi; u qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik va amaliy harakatlar zanjiridan tashkil topadi.



1-rasm: Darsdan tashqari mashg'ulotlarda (to'garaklar, intellektual o'yinlar, ijodiy kechalar) quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish zarur



Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo, ana shu shart-sharoitlarning paydo bo'lishi, amalga oshishi hamda rivojlanish jarayoni tushuniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari;
2. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi;
3. Ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir mashg'ulotlar, evristik yondashuvlar va muammoli vaziyatlar yaratish;
4. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuvlar.

Bu shart-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi:

- dastur materiallarini qay darajada o'zlashtirganligi;
- mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o'zlashtirganligi;
- tanlagan mavzu bo'yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi;
- o'rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi;
- topshiriqlarni bajarishda o'quv ashyolari, texnika vositalari va axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;
- mavzu bo'yicha o'z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo'ya olishi;
- o'z variantini tavsiya eta olishi va hokazolar.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar mashg'ulotlar majmui bilan cheklanib qolmasdan, balki maqsadli tashkil etilgan bo'lishi va rejalashtirilgan natijalarga erishishni ta'minlashi muhim. Sinfdan tashqari ish shakllarining quyidagi ko'rinishlari eng keng tarqalgan: individual, guruhli, birlashtiruvchi va ommaviy.

Individual ish – bu alohida o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashga qaratilgan mustaqil faoliyatidir. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini tashkil etishda o'quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klublari va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi.

Bunday o'qitish usullarining samaradorligi ko'p jihatdan o'quv jarayonida qo'llaniladigan metod va vositalarni to'g'ri tanlashga bog'liq. Har qanday o'qituvchi biladiki, ko'pincha o'quvchining ma'lum bir fan yoki mashg'ulotga bo'lgan qiziqishi aynan sinfdan tashqari tadbirlar orqali shakllanadi. Shu kabi usullar zamonaviy o'quvchining kelajakdagi kasbini tanlashiga ham katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Maktabdan tashqari faoliyat tashkilotchilari odatda o'qituvchilardan ushbu turdagi faoliyatni tayyorlash uchun muayyan vaqt va mehnat sarflashni talab qiladi. Chunki ma'lum bir mavzu bo'yicha qiziqarli va mazmunli materialni topish zarur. Zero, bu tadbirlar, avvalo, maktab o'quvchilarini nafaqat qiziqtirishi, balki ularni ilm-fan olamiga jalb qilishi kerak.

Shu bilan birga, muayyan tadbirning barcha bosqichlarini diqqat bilan rejalashtirish, ma'lumotni taqdim etish usullari va vositalarini tanlash hamda mashg'ulotni tashkil etish turini aniqlash lozim. Faqat shunday yondashuv orqali maktabdagi tadbirlar yuqori samaradorlikka erishishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy sinfdan tashqari mashg'ulotlar har qanday o'qituvchi faoliyatining eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Bunday tadbirlarni amalga oshirish o'quvchilarga sezilarli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda maktabdagi darsdan tashqari mashg'ulotlar deganda jamoa bilan olib boriladigan turli tadbirlar va mashg'ulotlar tushuniladi. Ular bevosita o'qituvchilar yoki maktabning boshqa xodimlari tomonidan tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Bunday faoliyat, qoida tariqasida, har qanday yosh toifasidagi o'quvchilar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Bugungi kunga kelib maktablarda turli xil faoliyat shakllari mavjud. Ko'pincha bunday tadbirlarga turli o'yinlar, o'quv ekskursiyalari, muzeylarga tashriflar va boshqa ma'rifiy mashg'ulotlar kiradi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijodiy faoliyatni shakllantirish metodlari jadvallarda keltirilgan.

№	Metod nomi	Mashg'ulot shakli	Shakllanadigan ijodiy ko'nikmalar
1	“Aqliy hujum” (Brainstorming)	Intellektual o'yinlar, munozara klublari	Tezkor fikrlash, stereotiplardan qochish, yangi g'oyalar generatori bo'lish.
2	Loyiha usuli (Project method)	“Mohir qo'llar”, “Yosh tabiatshunos” to'garaklari	Mustaqil rejalashtirish, tadqiqotchilik, yakuniy mahsulot (makett, rasm) yarata olish.
3	Rall o'yinlar (Keys-stadi)	Ertak-terapiya, sahnalashtirish mashg'ulotlari	Empatiya (o'zini o'zgani o'rniga qo'yish), muammolan chiqish yo'llarini izlash.
4	“Sinkveyn” va Krossvordlar	“Yosh tilshunos” to'garagi, kitobxonlik soatlari	So'z boyligini oshirish, voqea-hodisalarni sintez qilish va xulosa chiqarish.

Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, darsdan tashqari mashg'ulotlarda muntazam ravishda ijodiy topshiriqlarni bajarish o'quvchilarning darsliklarga bo'lgan qiziqishini ham 25-30 % ga oshiradi. Bolalarda quyidagi ijodiy sifatlar ko'zga tashlana boshlaydi:

1. Fikrning egiluvchanligi: bir muammoning bir nechta yechimini ko'ra olish.
2. Originallik: boshqalarga o'xshamaydigan, mutlaqo yangi g'oyalarni o'rtaga tashlash.
3. Tafakkurning kengligi: atrofdaigi narsa va hodisalarni chuqurroq idrok etish.

Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi - bolalarda bilim va ijodga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi belgilashiga ko'maklashish, ularni jamiyat hayotiga moslashtirish, sog'lom turmush tarzini joriy etishdir. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va hokazo.

Darsdan tashqari mashg'ulotlar teatrga, filarmoniyaga tashrif buyurish, muzey yoki botanika bog'iga ekskursiyalar uyushtirishni o'z ichiga oladi.

Sinfdan tashqari ishlarning bosqichlari: har qanday tadbir jarayon bo'lib, tayyorgarlik, tashkil etish, amalga oshirish va tahlil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Tayyorgarlik. Ushbu bosqichda o'qituvchi qaysi mavzu va ta'lim yo'nalishi ma'lum bir sinf hamda har bir o'quvchi uchun eng qiziqarli bo'lishini aniqlaydi. Buning uchun o'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida so'rov o'tkazish mumkin. Mavzuni aniqlagandan so'ng, o'qituvchi sinf (va agar xohlasa, ularning oilalari) bilan birgalikda tadbirning maqsad va vazifalarini belgilaydi, uning shaklini tanlaydi, reja tuzadi hamda zarur materiallar va jihozlarni belgilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim olishning poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish taqozo etiladi. Shunday ekan, o'quvchilarning ijodkorligi va ijodiy faoliyatini rivojlantirish zarurligi kun tartibidagi muammo bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda 1-4-sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish, ta'limni samarali tashkil etishda darslarni noan'anaviy tarzda o'tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish ularning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga va mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishga, shu bilan birga, darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga hamda qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirishda, yuqorida aytib o'tilganidek, ertak, hikoya, maqol, masal, she'r kabi asarlarni o'rgatishda, she'rni yodlatishdan oldin o'qituvchi uning mazmun-mohiyatini tushuntirib berishi, o'quvchilarning ushbu ma'lumotlarni anglab yetishi, faraz qilishi va hokazolar o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari to'garak ishlari fan, amaliy ijod, san'at yoki sportning ma'lum bir sohasiga qiziqish va ijodiy qobiliyatlarni aniqlash hamda rivojlantirishga yordam beradi. To'garakning yil davomidagi faoliyati to'g'risidagi hisobot ko'rgazma, ko'rik yoki bolalar ijodiyoti festivali shaklida amalga oshiriladi va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 77 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. O'QRQ-637. 2020-yil 23-sentyabr.
3. Mirziyoyeva S. Sh. Zamonaviy ta'limda kreativ yondashuvlar. - Toshkent, 2024.
4. Yo'ldoshev J. G'. Yangi pedagogik texnologiyalar: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari. - Toshkent, 2021.
5. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. - Москва, 2019.
6. Бюлер К., Зельц О. Психология мышления. - М.: Педагогика-Пресс, 2002. - 130 с.
7. Волков Б. С., Волкова Н. В. Возрастная психология: учебное пособие: в 2 частях. - М.: Владос, 2005. - 240 с.
8. Oljayeva O., Shavkatovna S. The Development of Logical Thinking of Primary School Students in Mathematics // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. - 2020. - Vol. 8, No. 2. - P. 235-239.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.